

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING TATBIQLARI

Nizomiddinova Mashhura Lutfiddin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

1-bosqich talabasi

+998908276360

mashhuranizomiddinova96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10081261>

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonning muhim tarmoqlaridan bo'lmish iqtisodiyotni rivojlantirishda hozirda amalga oshirilayotgan turli chora-tadbirlar va xorijiy mamlakatlar bilan qilinayotgan hamkorliklar va prezidentimizning bu boradagi farmonlari batafsil keltirib o'tildi. Xususan, O'zbekiston-Qatar iqtisodiy aloqalari haqida alohida ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, Jahon Savdo Tashkilotining O'zbekiston uchun muhimlik darajasi va mamlakatimizda bu tashkilotga qo'shilish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar yetarlicha mavzu doirasida o'rganib chiqildi va xulosalar bildirildi.

Kalit so'zlar: investitsiya, islohot, YaIM, kapital, diplomatik iqtisodiy munosabatlar, import, eksport, JST, monopoliya, savdo aylanmasi, turizm, sanoat, bozor iqtisodiyoti.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, uni jahon standartlariga moslashtirish, chet mamlakatlar bilan muhim iqtisodiy va ko'p tomonlama savdo aloqalarini yo'lga qo'yish oldimizdagi muhim vazifalardan biri etib belgilangan edi. Vaholanki, hozirga qadar bu masalalarning ko'p qismi hal etildi ham. Masalan, O'zbekistonning bir qancha rivojlangan, dunyo tan olgan davlatlar bilan yo'lga qo'ygan va qo'yayotgan hamkorliklari iqtisodiyotimizni rivojlantirish muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ulardan biri O'zbekiston-Qatar munosabatlari bo'lib, prezidentimizning shu yil 1-2-oktabr kunlari Qatarga qilgan tashriflari davomida har ikki davlat uchun ham birdek manfaatli bo'lgan qarorlar qabul qilindi, shartnomalar imzolandi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikrlar almashildi. Shuningdek, yurtimizning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish uchun amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ham alohida e'tirofga loyiqdir chunki O'zbekistonning bu tashkilotga a'zolik jarayoni eng uzoq davom etayotgan muzokaralardan biri hisoblanadi va yaqin kelajakda bu muvaffaqiyatga erishish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning iqtisodiyotni rivojlantirishga oid imzolagan farmonlarida ham 2022-2026-yillar uchun muhim maqsad va vazifalar belgilab berilgan edi.

Barchamizga ma'lumki, yurtimiz iqtisodiyoti yildan yilga rivojlashib bormoqda. Bu haqidagi statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, 2023-yilning birinchi choragidayoq O'zbekiston iqtisodiyoti 5,5 foizga o'sganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Statistika agentligining 2023 yilning birinchi choragida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha e'lon qilishicha:

Joriy yilning birinchi choragi yakunlariga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining o'sishi 5,5 foizni tashkil qilgan. Bu haqida Statistika agentligi xabar bermoqda. Hisobot davrida bozor xizmatlari hajmining o'sishi – 10,9 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi – 3,2 foizni, sanoatning o'sishi – 4,1 foizni, qurilish sohasining o'sishi – 4,5 foizni, chakana savdo tovar aylanmasining o'sishi esa 5,2 foizni tashkil qilgan. 2023 yilning yanvar-mart oylari

davomida tashqi savdo aylanmasi 11,9 foizga, xususan import hajmi 23,4 foizga oshgan, shu bilan bir qatorda eksport hajmi 2,6 foizga qisqargan.

Ma'lumot uchun, Jahon banki (JB) prognozlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot o'sishi 2023 yilda 5,1 foizni, Osiyo taraqqiyot bankining prognozlariga ko'ra esa 5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Avvalroq, O'zbekiston Markaziy banki 2023 yilda mamlakat iqtisodiyoti o'sishi 4,5–5 foiz darajasida bo'lishini ma'lum qilgandi.[1]

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan, prezidentimiz tomonidan O'zbekiston uchun yangi maqsad va vazifalar belgilab berildi. Albatta, iqtisodiyot sohasi ham bundan o'rin olgan bo'lib, u 21-36- maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ularda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish, iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish, respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish kabi dolzarb masalalar keltirib o'tilgan.

O'zbekistonni JST ga a'zolik masalasini ko'radigan bo'lsak, hozirda Jahon savdo tashkilotiga 164 davlat a'zo va ushbu mamlakatlar hissasiga global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 98 foizi to'g'ri keladi. O'zbekiston ham tashkilotga a'zo bo'lish uchun 1994 yilda ariza bergan bo'lsa-da, haligacha bu ish jarayonda qolmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish" asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan. Bu maqsadga erishishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish, mutaxassislarning tashkilot va ko'p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining metallurgiya, to'qimachilik, oziqovqat, avtomobilsozlik va milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish, tashkilot qoidalariga muvofiq bo'lgan ichki bozorni notarif choralari orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish, eksportni qo'llabquvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishidagi muhim jihatlardan biri sifatida shuni qayd etish mumkinki, JSTga a'zo bo'lish yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Birinchi navbatda, mahalliy ishlab chiqaruvchilar dunyo bozoridagi kuchli raqobatga bardosh berish uchun yanada sifatliroq mahsulotlar ishlab chiqara boshlaydi va natijada iste'molchilar arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlanadi. Shuningdek, yangi sarmoyalar asosida yangi ish

o'rinlari yaratiladi, bojxona va soliq imtiyozlari taqdim etiladi, korrupsion holatlar kamayadi. Mamlakatimiz tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismini mazkur tashkilotga a'zo davlatlar tashkil etgani bois, O'zbekistonning ham bu tashkilotga a'zo bo'lishi davlatlar bilan savdo aloqalarini yaxshilaydi va mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqadi. Hozirgi kunda qayta tashkil qilingan ishchi guruhlar a'zolik uchun faol harakat qilib kelmoqdalar, jumladan, 2023-yil 14-15-mart kunlari BMTTD ko'magida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhining 6-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish davomida JST Bosh direktori o'rinbosari Syanchjen Chjan JST Bosh direktori O'zbekistonning a'zo bo'lish jarayonini diqqat bilan kuzatayotganligini va JST kotibiyati ham bu yo'lda bizni qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilgan edi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, yurtimiz yaqin yillarda ushbu tashkilotga qo'shilishi ehtimoli yuqoridi.

O'zbekistonning yaqin hamkor davlatlaridan biri hisoblanadigan Qatar dunyodagi uchinchi yirik tabiiy gaz zaxiralariga ega va yalpi ichki mahsuloti aholi jon boshiga (104 ming dollar) eng yuqori davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisi 2,7 million kishi, yalpi ichki mahsuloti esa yiliga 274 milliard dollarni tashkil etadi. So'ngi yillarda O'zbekistonning mazkur mamlakat bilan munosabatlari sezilarli rivojlanib va yangi bosqichga chiqayotgani hech birimizga sir emas.[3]

Tabiiyki, so'nggi yillarda O'zbekiston va Qatar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqa jadallashib bormoqda. Darhaqiqat, 2022 yil 4,8 million dollarni tashkil etgan o'zaro savdo miqdori 2023 yil yanvar-avgust oylariga kelib 4,5 million dollarni tashkil qilmoqda.

2023 yil 8-9 may kunlari respublikamiz investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov boshchiligidagi delegatsiyaning Dohaga tashrifi doirasida Qatarining qator vazirliklari, yetakchi kompaniyalari mas'ullari bilan qator uchrashuvlar o'tkazildi. Energetika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, transport va turizm kabi yo'nalishlarda investitsiya sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishning ulkan imkoniyatlari qayd etildi. Ularni ro'yobga chiqarish uchun yaqin orada tomonlar o'zbek va qatarlik tadbirkorlari orasidan bo'lajak sheriklarni jalb qilish bo'yicha ish olib boradi. Tomonlar, shuningdek, Qatar kompaniyalarining energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatlarini alohida ta'kidladilar.

Investitsiya sohasidagi sheriklikni chuqurlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi va Qatar Davlati o'rtasida Investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risidagi bitim bo'yicha muzokaralarni jadallashtirish borasida kelishuvga erishildi.

O'zaro savdo sohasida ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligi qayd etildi. Savdo aylanmasini oshirish imkoniyatlarini birgalikda o'rganish, mavjud savdo to'siqlarini bartaraf etish va uchinchi mamlakatlardan kelayotgan import o'rnini bosish bo'yicha takliflar tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shu bilan birga, bank-moliya sohasida ham sheriklikni rivojlantirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Qatar tomoni O'zbekistonda islomiy banking mexanizmlarini joriy etish uchun qator Qatar banklarini jalb etishda ko'maklashishga tayyorligini bildirdi[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga qilinayotgan sa'y-harakatlar, islohotlar va investitsiyalar barchasi xalqimiz farovonligini ta'minlash va hayot tarzini yaxshilash uchun qilinmoqda. Xususan, prezidentimizning ham bu

sohaga qaratayotgan e'tiborlari bu sohani naqadar muhim va dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Xorijiy mamlakatlar bilan qilinayotgan hamkorliklar esa mamlakatimiz rivojida muhim o'rin tutgani bois, yildan yilga tobora ko'plab davlatlar bilan aloqalar yo'lga qo'lga qo'yilmoqda.

Eng muhim masalalardan biri bo'lgan O'zbekistonning JSTga a'zolik masalasi yurtimiz iqtisodiyotini yangi pog'onaga olib chiqishi kutilmoqda chunki bu orqali O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqadi va jahon bozorida o'z o'rnimizga ega bo'lishimizga yordam beradi. Shuningdek, O'zbekistonga ham sifatli va arzon tovarlar kirib kelishini ta'minlaydi. Bu orqali bozorlarda tovar aylanmalari yaxshilanadi, takliflar ko'payadi, monopoliyalarga barham beriladi.

References:

1. <https://kun.uz/uz/news/2023/04/24/2023-yilning-birinchi-choragida-ozbekiston-iqtisodiyoti-55-foizga-osdi>
2. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/26/28-yil-nega-ozbekistonning-jstga-azo-bolishi-chozilib-ketdi>
3. <https://daryo.uz/2023/10/01/ozbekistonqatar-munosabatlari-hamkorlikdan-nimalar-kutilmoqda>
4. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-qatar-kop-qirrali-hamkorlikni-faollashtiradi>
5. <https://lex.uz/docs/-5841063>

INNOVATIVE
ACADEMY